



QURILISH ISHLARI 2020-yilning yanvar-aprel oylari holatiga

Raqamlar:

Qurilish ishlari
hajmi -
1092,8 mlrd. so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
15,4%

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar
ulushi -
62,6 %


Norasmiy sektor
ulushi -
22,0 %

2020-yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatida jami 1092,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmining yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 168,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 15,4 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 martaga o'sdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,6 % yoki 683,9 mlrd. so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 22,0 % yoki 240,2 mlrd. so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatida jami 1092,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ga ya'ni 137,8 mlrd. so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 168,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 martaga yani 146,0 mlrd. so'mga ko'paydi. Hamda jami qurilish ishlar hajmining 15,4 % ni tashkil etdi.


Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 683,9 mlrd. so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,4 % yani 41,8 mlrd. so'mga kamaydi. Hamda jami qurilish ishlar hajmining 62,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasi 240,2 mlrd. so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ga yani 33,5 mlrd. so'mga ko'paydi. Hamda jami qurilish ishlar hajmining 22,0 % ni tashkil etdi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 666,8 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,6 mlrd. so'mga ko'paygan, hamda jami qurilish ishlar hajmining 61,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 222,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 85,6 mlrd. so'mga ko'paygan, hamda jami qurilish ishlar hajmining 20,4 % ni tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 203,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,6 mlrd. so'mga ko'paygan, hamda jami qurilish ishlar hajmining 18,6 % ni tashkil etdi.

Yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 0,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 0,1 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 63,7 % (3,7 % ga kamaydi) va norasmiy sektorning ulushi 36,0 % (3,7 % ga ko'payish) ni tashkil etdi.



Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 73,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 59,8 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 26,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 59,2 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,5 % ga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi va 1,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 48,2 mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 74,0 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 1044,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 102,6 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatda tutgan ulushi mos ravishda 4,4 % va 95,6 % ni tashkil etdi.






QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining, 87,6 % yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari % da




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (378,2 mlrd. so'm yoki 118,9 %) – Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan va kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurib bitirish ishlari amalga oshirilgan;

Kosonsoy tumanida (100,8 mlrd. so'm yoki 107,1 %) - Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes subyektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Namangan tumanida (102,0 mlrd. so'm yoki 89,0 %) - Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sishi

№	Shahar tumanlar	2019-yil yanvar-aprel (mlrd. so'm)	2020-yil yanvar-aprel (mlrd. so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%) da	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:		955,0	1092,8	100,9	100,0
1	Namangan shahar	278,4	378,2	118,9	34,5
	<i>tumanlar:</i>				
2	Mingbuloq	36,2	36,0	87,5	3,3
3	Kosonsoy	83,8	100,8	107,1	9,2
4	Namangan	101,1	102,0	89,0	9,3
5	Norin	41,8	41,1	88,2	3,8
6	Pop	59,0	59,8	89,0	5,5
7	To'raqo'rg'on	58,2	60,2	91,2	5,5
8	Uychi	111,0	112,3	88,9	10,3
9	Uchqo'rg'on	28,9	30,3	93,7	2,8
10	Chortoq	56,0	58,2	91,9	5,3
11	Chust	51,0	57,5	100,5	5,3
12	Yangiqo'rg'on	49,6	56,4	101,2	5,2

Hududlar kesimida qurilish ishlari o'sishi

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahrida 378,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 47,9 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 74,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan


yilning mos davriga nisbatan 63,3 % ga o'sdi, Yangiqo'rg'on tumanida 56,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga o'sdi. Chust tumanida 57,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 34,5 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 9,3 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 8,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 3,8 % ni, Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 3,3 % ni tashkil etdi.

**2020-yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining
umumiy hajmda hududlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan % da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**
Aloqa telefoni: (69) 226-84-85